

**XORIJDAGI FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQLARI VA ERKINLIKLARI SAMARALI HIMoya QILINISHI
KUCHAYTIRILDI**

Quvondiq Ulug‘ov

Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho‘basi boshlig‘i

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bugun hayotimizning barcha jabhasida muhim ahamiyat kasb etib, inson huquq va erkinliklarining kafolati sifatida o‘z o‘rnini tobora mustahkamlab bormoqda.

Xususan, bosh qomusimizning 23-moddasida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlashi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi;

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan.

Shunga ko‘ra, amaldagi qonun hujjatlari to‘liq Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilayotgan bo‘lib, birgina misol sifatida O‘zbekiston Respublikasining joriy yil 4-dekabrdagi O‘RQ-1009-sen Qonuni bilan bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan qo‘srimchalar va o‘zgartirishga muvofiq, kodeks xorijiy davlat sudining qarori tan olinishi va ijroga qaratilishini, ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni jazoni o‘tashni davom ettirish uchun, shuningdek o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanilgan shaxsni majburiy davolashni davom ettirish uchun, qabul qilib olishni hamda xorijiy davlatga berishni nazarda tutuvchi yangi bob bilan to‘ldirilganligini aytishimiz mumkin.

Shuningdek, mazkur Qonun bilan kodeksda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni va o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llanilgan shaxslarni qabul qilib olish hamda berish asoslari, sud jarayoni ishtiropchilarining protsessual maqomi belgilandi.